


"TASDIQLAYMAN"
Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi
Kadastr agentligi direktori –
Hay'at raisi


F.J.Pulatov
2022-yil " " -iyul

**O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi
Kadastr agentligi Hay'ati yig'ilishining
BAYONI**

2022-yil " 22 " -iyul

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi: F.J.Pulatov – Kadastr agentligi direktori

Qatnashdilar: Hay'at a'zolari, markaziy apparat boshqarma
va mustaqil bo'linmalari boshliqlari

KUN TARTIBI:

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risida.

(Pulatov, Allaberganov, Abdullayev, Mirmaksudov, Atamuratov, Fayzullayev, Sultanov, Ergeshov, Imomkulov, Valiyev, Shoniyazov, Pulatov)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2022-yil 11-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil II yarim yillik ish rejasini to'g'risida"gi 103-son bayoni hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Hay'ati majlisining 2022-yil 20-iyuldagi 12-son bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida Kadastr agentligining "2022-yil I yarim yillik ish rejasida belgilangan eng muhim ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan direktor o'rinbosarlari hisobot berishdi. Agentlik tomonidan 2021-yil I yarim yillik ish rejasini yakunlari bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Jumladan:

Yer va ko'chmas mulklarni hisobga olish yo'nalishida:

Respublikaning jami **44,9 mln gektar** yer maydonidan **41,1 mln gektari** yoki **91 foizi** "Kadastr va ro'yxatdan o'tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi"da **elektron xaritasi yaratilib**, kadastr axborot tizimiga kiritildi, Shundan:

– **34,8 mln gektar 4 585 mingta** yerdan foydalanuvchilar kesimida kadastr yig'ma jildlari shakllantirilgan holda **davlat ro'yxatidan o'tkazildi**.

– **5,1 mln gektar** yer uchastkalaridan haqiqatda foydalanib turgan subyekt “**foydalanuvchi**” sifatida **hisobga olindi** (2 162,2 mingta).

Ilgari hisobga olinmagan **146,9 mingta** qo‘shimcha obyekt, **14,6 mingta** obyektida qo‘shimcha qurilmalar aniqlanib, byudjetga **214,1 mlrd so‘m qo‘shimcha soliq** hisoblandi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari asosida **388 396 ta** shundan, **32 806 ta** yangi ko‘chmas mulklar va **355 590 ta** mavjud obyektlar qayta ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Yer, kadastr va geodeziya nazorati yo‘nalishida:

Amalga oshirilgan yer va kadastr nazorati tadbirlari natijasida **9 854 ta** holatda **3 020,4 gektar** yerlarni **o‘zboshimchalik bilan egallab olish** bo‘yicha huquqbuzarliklar aniqlanib, berilgan yozma ko‘rsatmalar asosida **4 659 ta** holatda **1 794,8 gektar** yoki **47 foiz** yer qonunbuzilish holatlari ixtiyoriy ravishda bartaraf etildi.

Yer uchastkalarini qaytarish va ularda qurilgan imoratlarni buzdirish bo‘yicha sudlarga **3 520 ta** holatda **520,1 gektar** da‘vo arizalar kiritildi.

Shundan, **8 77 ta** (122,4 gektar) da‘vo arizalar sudlar tomonidan qanoatlantirilib, majburiy ijroga qaratildi.

Huquqbuzarlik holatida **jinoiat alomatlari mavjud** bo‘lgan **852 ta** materiallar o‘rnatilgan tartibga muvofiq prokuratura organlariga kiritildi.

Yerga oid huquqbuzarlik sodir etgan **19 037 ta** shaxslarga **ma‘muriy jazo** choralari qo‘llanildi.

Yer va kadastr nazoratini avtomatlashtirish maqsadida “**E-yer nazorat**” AAT amaliyotga joriy etilib, **23 000 ta** aniqlangan huquqbuzarliklar axborot tizimiga kiritildi.

Geodeziya va kartografiya faoliyatiga oid **84,4 mlrd so‘mlik** ishlar ekspertizadan o‘tkazildi.

Geodeziya va kartografiya faoliyatiga oid **112 ta** texnik loyiha (ishlar dasturlari), **87 ta** geodeziya va kartografiya ishlarining yakuniy texnik hisobotlari hamda **82 ta** kartografiya mahsulotlari ekspertizadan o‘tkazildi.

Maxfiy kartografiya va geodeziya materiallariga **49 ta** ruxsatnomalar rasmiylashtirilib, **11 420 ta** materiallar foydalanuvchilarga taqdim etildi.

Geodeziya va kartografiya faoliyati bilan shug‘ullanish uchun “Litsenziya” AT orqali yuborilgan **84 ta** xabarnomalar tahlil qilingan holda reestrda hisobga olindi.

Bo‘sh yerlarni auksionga chiqarilishi yo‘nalishida:

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qaroriga asosan yangi tartib joriy etilgandan keyin “Yerelektron” tizimiga **65 959 ta 3 613,9 gektar** yer uchastkalari kiritilib, vakolatli organlar tomonidan ijobiy xulosa berilgan **28 583 ta 1 275 gektar** yer uchastkalari “**E-Ijro auksion**” orqali **auksionga chiqarildi**.

Auksionga chiqarilgan **28 583 ta 1 275 gektar** yer uchastkalaridan Mulk huquqi asosida **12 345 ta 465,7 gektar**, Ijara huquqi asosida **16 238 ta 809,4 gektar** auksion sotuvida turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrdagi PQ-20-son qaroriga asosan dehqon xo‘jaligi uchun **80 084 gektar** past hosilli paxta-g‘alladan bo‘shagan yerlarni 2022-yil davomida tuman hokimligi zaxirasiga qaytarish belgilangan.

Joriy yilning 1-iyul holatiga hokimliklar qaroriga asosan **9 863 ta** fermer xo‘jaliklarining **82 643 gektar** (103 %) yerlari zaxiraga qaytarilgan.

Kadastr idoralari tomonidan “UzKad” tizimi orqali tuman hokimliklari nomiga jami **47 579 ta 1 293 607 gektar** zaxira yerlari, shu jumladan, **30 734 tasi** yoki **267 388 gektari** suvli yerlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

“O‘zdavyerloyiha” tomonidan **370 016 ta 251 753 gektar** (dehqon xo‘jaligi uchun 366 719 ta 81 384 gektar) yer maydonlari lotlarga ajratilib, kelishish uchun yuborilgan.

Shundan, **370 016 ta 251 753 gektar** (dehqon xo‘jaligi uchun 366 719 ta 81 384 gektar) yer uchastkalari “O‘zdavyerloyiha” tomonidan tanlovga chiqarilgan.

Auksionda **317 811 ta 137 576 gektar** (dehqon xo‘jaligi uchun 316 213 ta 63 043 gektar) tanlov g‘olibi aniqlangan va “O‘zdavyerloyiha” tomonidan **307 754 ta** (131 009 gektar) ijara shartnomalari rasmiylashtirilib, Davlat kadastrlari palatasiga **306 313 tasi** yuborilgan.

Davlat kadastrlari palatasi tomonidan yer uchastkasiga bo‘lgan **296 867 ta 78 227 gektar** (dehqon xo‘jaligi uchun 296 259 ta 58 498 gektar) ijara huquqlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Geodeziya va kartografiya faoliyati yo‘nalishida:

O‘tgan davr mobaynida **3 138 ta** geodeziya punktlarini tekshirish ishlari amalga oshirildi, **224 ta** geodeziya o‘lchovlari bajarildi, **104 km** nivelirlash ishlari bajarildi.

43 766,1 kv.km. maydonda aerofoto-suratga olish ishlari, **2 144,5 ming gektar** maydonda deshifrovka ishlari bajarildi, **17 000 kv.km.** maydonda ortofotoplanlar yaratildi.

51 200 kv.km. maydonda topografik xaritalar yangilandi, **4,2 ming kv.km.** ochiq turdagi xaritalarni yangilash ishlari amalga oshirildi, **1 439,1 kv.dm.** siyosiy-ma‘muriy xaritalar yaratildi va **60 548 ta** geografik obyektlar nomlari davlat ekspertizasidan o‘tkazildi.

Ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash faoliyati yo‘nalishida:

Hisobot davrida Kadastr agentligiga 1a-kartoteka bo‘yicha **2 ta** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **3 ta** farmonlari, **8 ta** qarorlari, **4 ta** farmoyishi hamda 2a-kartoteka bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining **16 ta** qarorlari va **18 ta** farmoyishlari ijro uchun kelib tushgan.

Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash maqsadida jami **137 ta** Agentlikning ichki hujjati, jumladan **1 ta** hay'at qarori, **100 ta** buyruqlar va **36 ta** chora-tadbirlar rejalari qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari ijrosi bo'yicha Agentlik markaziy apparati hududiy boshqarmalarda **14 ta** maqsadli kompleks o'rganishlar o'tkazildi.

Kadastr agentligi tizimiga kelib tushgan jami **13 466 ta** murojaatlarning **9 832 tasi (77,6 foizi)** qanoatlantirilgan bo'lsa, **2 605 tasi (20,6 foizi)**ga umumiy tushuntirish berish orqali ko'rib chiqilgan va **237 tasi (1,9 foizi)**ga rad javobi berilgan, **792 ta** murojaat ko'rib chiqish jarayonida.

Kadastr agentligiga joriy yilning 1-iyul holatiga **Prezident virtual qabulxonasi** orqali jami **10 373 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlar hududlar kesimida ko'rib chiqilganda, eng ko'pi **Surxondaryo viloyatiga (1 390 ta)**, **Samarqand viloyatiga (1 342 ta)**, **Qashqadaryo viloyatiga (1 199 ta)** va **Toshkent viloyatiga (1 101 ta)** murojaat kelib tushgan.

Murojaatlar to'liq ijobiy hal etilishi hududlar kesimida ko'rib chiqilganda, eng kami **Namangan viloyatida (673 ta yoki 69.8 foiz)**, **Toshkent shahrida (379 ta yoki 52.8 foiz)** ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Muddati buzilib yopilgan va 30 kundan kechiktirib yopilgan murojaatlarni tahlil qilganimizda, eng ko'pi **Samarqand viloyatida (39 ta yoki 3,4 foiz)** ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Kadastr agentligiga 2022-yil 1-yarim yilligi davomida **Bosh vazir virtual qabulxonasi** orqali **jami 690 ta** murojaatlar kelib tushgan, **397 tasi (57,5 foizi)** qanoatlantirilgan bo'lsa, **291 tasi (42,2 foizi)**ga umumiy tushuntirish berish orqali ko'rib chiqilgan va **2 tasiga** rad javobi berilgan.

Murojaatlar hududlar kesimida ko'rib chiqilganda, eng ko'pi **Samarqand viloyatiga (81 ta)**, **Buxoro viloyatiga (80 ta)**, **Jizzax viloyatiga (68 ta)** kelib tushgan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi orqali 2022-yil davomida **jami 356 ta** murojaatlar kelib tushgan, **216 tasi (65,7 foizi)** qanoatlantirilgan bo'lsa, **108 tasi (32,8 foizi)**ga umumiy tushuntirish berish orqali ko'rib chiqilgan va **5 tasiga** rad javobi berilgan.

O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining Xotin-qizlar muammolari bo'yicha 1211 ishonch telefoniga jami 80 ta murojaatlar kelib tushgan, shundan, **72 tasi (90,0 foizi)** ijobiy hal etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining "Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash Respublika Shtabi" o'z faoliyatini boshlagani hamda kelib tushgan murojaatlarni tezkorlik bilan ijobiy hal qilish ta'minlash

maqsadida Kadastr agentligiga “**Eksport portali**” orqali jami **51 ta** murojaat kelib tushgan, shundan **45 tasi** ko‘rib chiqilgan va **6 ta** murojaat ko‘rib chiqish jarayonida.

Kadastr agentligining qisqa **1097 – Ishonch telefoniga** joriy yil 1-iyul kuniga qadar jami **1 500** dan ortiq murojaatlar qabul qilingan bo‘lib, **596 ta** murojaat ijroga qaratilgan bo‘lsa, shundan **208 ta** yoki **36 foiz** qanoatlantirilgan va **329 ta** yoki **57,8 foiziga** tushuntirish berilgan va **9 ta** murojaat rad etilgan.

Yil boshidan Kadastr agentligiga **to‘g‘ridan-to‘g‘ri** jismoniy shaxslardan – **1 638 ta** va yuridik shaxslardan - **334 ta** jami **1 972 ta** murojaat kelib tushgan. Shundan, **304 ta** yoki **15,5 foiz** hal etilgan, **1425 ta** yoki **72,4 foiziga** tushuntirish berilgan, **73 ta** rad javobi berilgan bo‘lsa, **165 ta** murojaat ko‘rib chiqish jarayonida.

2022-yil o‘tgan davr mobaynida, Kadastr agentligi hududiy boshqarmalariga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda kamchiliklar va qonunbuzarliklarga yo‘l qo‘ygan rahbar va mas‘ul xodimlarga nisbatan **10 ta jarima** va **40 ta hayfsan**, jami **50 ta intizomiy jazo choralari** qo‘llanilgan.

Yuqoridagi mavjud kamchilik va mammolarni bartaraf etish yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar belgilab berildi.

Kun tartibida muhokama qilingan masalalardan kelib chiqib yig‘ilish **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi direktori o‘rinbosarlarining 2022-yil I yarim yillik davomida sohada amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil II yarim yillik ish rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. **Direktor o‘rinbosarlari (Allaberganov, T.Abdullayev, A.Abdullayev, M.Mirmaksudov), tizim tashkilotlari hamda hududiy boshqarma boshliqlari** Kadastr agentligining 2022- yil II yarim yillik ish rejasidagi tegishli topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatlarda va sifatli ta‘minlanishida qat‘iy nazorat o‘rnatilishini ta‘minlasin.

4. **Tashkiliy nazorat va tahlil boshqarmasi (D.Shoniyazov)** Agentlik tegishli tuzilmalari bilan birgalikda **har oy yakuni** bilan ish rejaning ijrosi yuzasidan ma‘lumotlarni tahlil qilgan holda natijasi bo‘yicha rahbariyatga axborot taqdim etib borsin.

5. Mazkur bayon topshiriqlari ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Hay‘at mas‘ul kotibi

D.Shoniyazov

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosatining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
2022-yil II yarim yillik ish rejasi to‘g‘risida” 2022-yil 11-iyuldagi 103-son bayonida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan
Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil II yarim yillikka mo‘ljallangan
I S H R E J A S I**

T/r	Belgilangan topshiriqlar, ustuvor yo‘nalish va vazifalar	Ijro muddati	Mas‘ullar: Direktor o‘rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari
Kadastr agentligi rahbarining 2022-yil II yarim yillik Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlislarida respublikani ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor vazifalarini amalga oshirish yuzasidan hisobotlar bo‘yicha			
1	<u>“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni</u> ijrosi bo‘yicha Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari rahbariyatining mas‘uliyati to‘g‘risida. <i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Qonun ijrosini ta‘minlashda agentlik tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma‘lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	1-avgust	Direktor o‘rinbosarlari (T.Abdullayev), YMTZ, geodeziya va kartografiya boshqarmasi (Ergeshov), Metodologiya boshqarmasi (Nishanov), Respublika aerogeodeziya markazi (Omonov)
Ia. Agentlikning 2022-yil II yarim yilligida Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar			
2	Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan Kadastr sohasidagi topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish. <i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Davlat dasturida Kadastr agentligiga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini nazoratga olish.	II yarim yillikda	Direktor o‘rinbosarlari (Allaberganov, T.Abdullayev, A.Abdullayev, Mirmaksudov), Tegishli tarkibiy tuzilmalar va tashkilotlar
3	<u>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-2022-yillarda respublika hududlariga tashriflari</u> yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonnomalardagi Kadastr sohasidagi topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish. <i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Mazkur bayonnomalarda Kadastr agentligiga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini nazoratga olish.	II yarim yillikda	Direktor o‘rinbosarlari (Allaberganov, T.Abdullayev, A.Abdullayev, Mirmaksudov), Tegishli tarkibiy tuzilmalar va tashkilotlar

T/r	Belgilangan topshiriqlar, ustuvor yo'nalish va vazifalar	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari
4	<p><u>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida</u> iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha 2018-2022 йилларда o'tkazilgan majlislar yakunlariga muvofiq tasdiqlangan bayonnomalardagi <u>Kadastr sohasidagi</u> topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Mazkur bayonnomalarda Kadastr agentligiga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini nazoratga olish.</p>	II yarim yillikda	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, T.Abdullayev, A.Abdullayev, Mirmaksudov), Tegishli tarkibiy tuzilmalar va tashkilotlar
<p>Ib. Kadastr agentligining 2022-yil II yarim yilligida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha takliflari</p>			
5	<p>Vazirlar Mahkamasining "Jismoniy shaxslarning foydalanishidagi huquq belgilovchi hujjatlari mavjud bo'lmagan ko'chmas mulk obyektlarini xatlovdan o'tkazish va natijalari bo'yicha ularga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi qarori loyihasi.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Qaror loyihasini to'liq qayta ko'rib chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritishni ta'minlash maqsadida Bosh prokuraturaga taqdim etish.</p>	1-avgust	Direktorning birinchi o'rinbosari (Allaberganov), Yuridik boshqarma (Amirqulov), Agentlikning ekspert-tahlil guruhi
6	<p>Mavjud ko'chmas mulk obyektlari va ularda o'tkazilgan xatlov natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yuklash, tahlil qilish va onlayn (elektron xarita orqali ham) kuzatib borish imkonini beradigan axborot tizimini joriy etish.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Axborot tizimi orqali respublika, viloyat, tuman (shahar), mahalla hamda har bir xodim kesimida amalga oshirilgan ishlarni monitoring-tahlil qilish va zaruriy hisobotlarni olish imkoniyatini yaratish.</p>	1-dekabr	Direktor o'rinbosari (Mirmaksudov), IT-texnologiyalar va axborot xavfsizligi bo'limi (Abdullayev), MGAT va Davlat kadastrlari boshqarmasi (Latipov), "Geoinfokom" DUK (Turg'unov)
7	<p>Hududlar tomonidan ko'chmas mulk obyektlarini xatlovdan o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqish.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Uslubiy qo'llanmada: ko'chmas mulk obyektlarini xatlovdan o'tkazish ketma-ketligi, obyektlarini qonunchilik hujjatlariga qay darajada mos holda qurilganligini aniqlash hamda ularni tegishli toifalarga ajratish, ko'chmas mulkka oid egalik huquqini e'tirof etishga asos bo'ladigan mezonlarga mos kelishini o'rganish, xatlov natijalari bo'yicha tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, manfaatdor idora va tashkilot vakillaridan iborat viloyat, tuman va shahar ishchi guruhlarining namunaviy shakllari, amalga oshirilgan xatlov natijalarini axborot tizimiga kiritish va uning hisobini yuritish bo'yicha namunaviy hisobot shakllarini tasdiqlash nazarda tutish.</p>	oktabr	Direktor o'rinbosari (Mirmaksudov), MGAT va Davlat kadastrlari boshqarmasi (Latipov), Davlat kadastrlarini yuritishda hududlar bilan ishlash boshqarmasi (Isametdinov), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev)

T/r	Belgilangan topshiriqlar, ustuvor yo'nalish va vazifalar	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari
8	<p>Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasi, hududiy boshqarma va filiallarini tarkibiy tuzilma hamda shtat jadvallarini tasdiqlash.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Davlat kadastrlar palatasidan shtat jadvallari loyihasini olish, o'rganib chiqish va rahbariyat tomonidan tasdiqlanishi uchun kiritilishini ta'minlash.</p>	25-avgust	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, A.Abdullayev, Mirmaksudov), Kadrlar bo'limi (Olimov), Moliya-iqtisod va buxgalteriya boshqarmasi (Muxammadiyev), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev)
9	<p>Kadastr agentligida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish choralari ko'rish va uning bajarilishini ta'minlash.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Agentlikda kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini tahlil qilish, takomillashtirish yuzasidan choralar ko'rish (<i>buyruq yoki chora-tadbir</i>).</p>	1-oktabr	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, T.Abdullayev, A.Abdullayev, Mirmaksudov), Kadrlar bo'limi (Olimov)
10	<p>“Ko'chmas mulk-3” dasturiy mahsulida hisobga olingan jismoniy shaxslar egaligida bo'lgan noturar obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Dasturdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, ulardagi mavjud kamchiliklar o'lchamlarini (parametr) to'g'rilash, soliq solish maqsadida Davlat soliq qo'mitasiga taqdim etish.</p>	1-oktabr	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, Mirmaksudov), SOBIM va marksheyderlik xizmati boshqarmasi (Bozorov), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev)
11	<p>“UzKAD” dasturiy mahsulida hisobga olingan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan qishloq xo'jaligi yer maydonlarni hamda faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bilan “O'zdavyerloyiha” instituti ma'lumotlarini o'zaro muvofiqlashtirish.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Dasturdagi ma'lumotlarni “O'zdavyerloyiha” instituti bilan hamkorlikda tahlil qilish, ulardagi mavjud nomuvofiqlikni aniqlash to'g'rilash, soliq solish maqsadida Davlat soliq qo'mitasiga taqdim etish.</p>	II yarim yillikda	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, Mirmaksudov), SOBIM va marksheyderlik xizmati boshqarmasi (Bozorov), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev)
12	<p>Ko'p yillik daraxtlarga kadastr pasporti rasmiylashtirish va davlat ro'yxatidan o'tkazishni tashkil etish.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Ko'p yillik daraxtlarning xususiyatlarini inobatga olgan holda mavjud normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish;</p> <p>Ko'p yillik daraxtlarga kadastr pasporti rasmiyshtirish va davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishni joriy qilish.</p>	1-sentabr	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, Mirmaksudov), Metodologiya boshqarmasi (Nishanov), MGAT va Davlat kadastrlari boshqarmasi (Latipov), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev)

T/r	Belgilangan topshiriqlar, ustuvor yo'nalish va vazifalar	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari
13	<p>Davlat xizmatlari ko'rsatishdagi narxlarni takomillashtirish. <i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> 1. Davlat kadastrlari palatasining hududiy bo'linmalari tomonidan kadastr yig'majildlari tayyorlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonidagi sarf xarajatlarini tahlil qilish. 2. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-iyuldagi 186-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	dekabr	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, Mirmaksudov), Metodologiya boshqarmasi (Nishanov), MGAT va Davlat kadastrlari boshqarmasi (Latipov), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev)
14	<p>Geodeziya tarmog'i punktlarini ro'yxatdan o'tkazish hamda hisobga olishni tashkil etish. <i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Geodeziya tarmog'i punktlarini ro'yxatdan o'tkazish hamda hisobga olishni texnik jihatdan tartibga soluvchi hujjat ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirish.</p>	15-dekabr	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, T.Abdullayev), Geodeziya nazorati boshqarmasi (Imomqulov), YMTZ, geodeziya va kartografiya boshqarmasi (Ergeshov), Respublika aerogeodeziya markazi (Omonov), Davlat kartografiya-geodeziya fondi (Asqarov)
15	<p>Axborot tizimi orqali geodeziya va kartografiya ishlari loyihalarini ekspertizadan o'tkazish hamda ro'yxatga olish mexanizmini yo'lga qo'yish. <i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Adliya vazirligi bilan birgalikda "Litsenziya" ATTda geodeziya va kartografiya ishlari loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va ro'yxatga olish ishlarini axborot tizimi orqali amalga oshirish choralari ko'rish.</p>	25-dekabr	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, Mirmaksudov), Geodeziya nazorati boshqarmasi (Imomqulov), IT-texnologiyalar va axborot xavfsizligi bo'limi (Abdullayev)
16	<p>Yer uchastkasidan belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanilganda ushbu yer uchastkasiga bo'lgan huquqni bekor qilish haqida sudga da'vo arizasi kiritishni yo'lga qo'yish. <i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> 1. Hududiy boshqarmalarning 2022-yil II yarim yillik harajatlar smetasiga ma'muriy sudlarda davlat boji uchun mablag'lar ajratish. 2. Ajratilgan mablag'lardan to'g'ri va maqsadli foydalanilishini nazorat qilish. 3. Agentlik, uning joylardagi organlarini yer to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi bilan bog'liq da'volar bo'yicha ma'muriy sudlarda davlat bojini to'lashdan ozod qilish yuzasidan "Davlat boji to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish haqida taklif ishlab chiqish.</p>	avgust Doimiy 30-avgust	Direktorning birinchi o'rinbosari (Allaberganov), Yer va kadastr nazorati boshqarmasi (Fayzullayev), Moliya-iqtisod va buxgalteriya boshqarmasi (Muxammadiyev), Metodologiya boshqarmasi (Nishanov), Yuridik boshqarma (D.Amirqulov), Hududiy boshqarmalar

T/r	Belgilangan topshiriqlar, ustuvor yo'nalish va vazifalar	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari
17	<p>Agentlik yer va kadastr nazoratiga mas'ul xodimlarining xizmat faoliyatini reyting asosida baholash tizimini joriy qilish.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> 1. Yer va kadastr nazoratiga mas'ul xodimlarining xizmat faoliyati natijalarini baholash tartibi va mezonlari to'g'risidagi nizom loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish.</p> <p>2. Yer va kadastr nazoratiga mas'ul xodimlarning xizmat faoliyati natijalarini baholab borish.</p>	<p>avgust</p> <p>Har chorak yakuni bilan</p>	<p>Direktorning birinchi o'rinbosari (Allaberganov), Yer va kadastr nazorati boshqarmasi (Fayzullayev), Ma'muriy amaliyot bo'limi (Omanov), Hududiy boshqarmalar</p>
18	<p>Yerga oid huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarga nisbatan ma'muriy bayonnomalarni tuzish ishlarini takomillashtirish.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> 1. Zamonaviy planshetlar (100 dona) xarid qilish.</p> <p>2. Planshet orqali yerga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan ma'muriy bayonnomalarni rasmiylashtirish tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha Farg'ona viloyatida tajriba o'tkazish.</p>	<p>noyabr</p> <p>dekabr</p>	<p>Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, Mirmaksudov), Moliya-iqtisod va buxgalteriya boshqarmasi (Muxammadiyev), Ishlar boshqarmasi (Inomov), IT-texnologiyalar va axborot xavfsizligi bo'limi (Abdullayev), Yer va kadastr nazorati boshqarmasi (Fayzullayev), Ma'muriy amaliyot bo'limi (Omanov), Farg'ona viloyat boshqarmasi (Mashrapov)</p>
19	<p>Aero va kosmik suratlar yordamida ko'chmas mulk obyektlarini nazorat qilish va noqonuniy qurilishlarni avtomatlashtirilgan tizim orqali aniqlash mexanizmini joriy etish.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> "O'zbekkosmos" agentligi bilan birgalikda sinov tariqasida Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek va Yunusobod tumanlari hamda Toshkent viloyatining Qibray va Toshkent tumanlarida o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalarini va noqonuniy bino va inshootlarni kosmik suratlarni qayta ishlash orqali aniqlash imkoniyatini beruvchi "O'zbekkosmos" agentligining axborot tizimini o'rganib, rahbariyatga xarid qilish yuzasidan taklif kiritish.</p>	<p>25-dekabr</p>	<p>Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, T.Abdullayev, Mirmaksudov), YMTZ, geodeziya va kartografiya boshqarmasi (Ergeshov), MGAT va Davlat kadastrlari boshqarmasi (Latipov), IT-texnologiyalar va axborot xavfsizligi bo'limi (Abdullayev), Yer va kadastr nazorati boshqarmasi (Fayzullayev), "Geoinfokom" DUK (Turg'unov)</p>
20	<p>Vazirlar Mahkamasining "Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini rivojlantirish strategiyasi hamda Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini rivojlantirishning 2023–2027-yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Qaror loyihasini ishlab chiqish, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish hamda Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritish.</p>	<p>oktabr</p>	<p>Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, T.Abdullayev, Mirmaksudov), Metodologiya boshqarmasi (Nishanov), YMTZ, geodeziya va kartografiya boshqarmasi (Ergeshov), MGAT va Davlat kadastrlari boshqarmasi (Latipov), Geodeziya nazorati boshqarmasi (Imomqulov), IT-texnologiyalar va axborot xavfsizligi bo'limi (Abdullayev), Yuridik boshqarma (Amirqulov), Davlat kadastrlar palatasi (Valiyev)</p>

T/r	Belgilangan topshiriqlar, ustuvor yo'nalish va vazifalar	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari
21	<p>O'zbekiston Respublikasining "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-775-son Qonuni ijrosini ta'minlash yuzasidan Hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqashtirish.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Qonunga muvofiqashtiriladigan Hukumat qarorlarini ro'yxatini shakllantirish, Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish, vazirlik va idoralar bilan kelishish hamda Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritish.</p>	noyabr	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, Mirmaksudov), Metodologiya boshqarmasi (Nishanov), MGAT va Davlat kadastrlari boshqarmasi (Latipov), Yuridik boshqarma (Amirqulov), Davlat kadastrlar palatasi (Valiyev)
22	<p>Vazirlar Mahkamasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sohasidagi arizalari va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori loyihasi.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Qaror loyihasini ishlab chiqish, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish hamda Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritish.</p>	dekabr	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, Mirmaksudov), Metodologiya boshqarmasi (Nishanov), MGAT va Davlat kadastrlari boshqarmasi (Latipov), Yuridik boshqarma (Amirqulov), Davlat kadastrlar palatasi (Valiyev)
23	<p>Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-maydagi "2022-2023-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 259-son qaroriga muvofiq Kadastr agentligi va uning tizimidagi korxonalar va tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan quyidagi oyliklarni o'tkazish:</p> <p>"Huquqiy savodxonlik oyligi" "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" "Konstitutsiyaviy huquq oyligi"</p>	avgust oktabr dekabr	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, T.Abdullayev, Mirmaksudov), Yuridik boshqarma (Amirqulov), Metodologiya boshqarmasi (Nishanov), Iqtisodiy tahlil va strategik rivojlantirish boshqarmasi (Sultanov), Moliya-iqtisod va buxgalteriya boshqarmasi (Muxammadiyev), YMTZ, geodeziya va kartografiya boshqarmasi (Ergeshov), MGAT va Davlat kadastrlari boshqarmasi (Latipov), Geodeziya nazorati boshqarmasi (Imomqulov)
24	<p>Jaxon bankining "Ko'chmas mulkni ro'yxatdan o'tkazish va kadastr tizimini modernizatsiyalash" loyihasi doirasida olib kelinayotgan tovar-moddiy boyliklarni tegishli bojxonada rasmiylashtirish.</p> <p><i>Amalga oshirish mexanizmi:</i> Tegishli bojxona idorasi orqali olib kelingan tovar-moddiy boyliklarni rasmiylashtirilishini tashkil etish va ularni qabul qilib olish.</p>	avgust	Direktor o'rinbosarlari (Allaberganov, Mirmaksudov), Ishlar boshqarmasi (Inomov), Moliya-iqtisod va buxgalteriya boshqarmasi (Muxammadiyev)

